

ORTIQCHA TANA VAZNI OSTEOARTROZ DAVOLANISH DIMANIKASIGA TA`SIRI.

Aminjonov Qoyiljon Abduqodir o`g`li .
Andijon Davlat Tibbiyot instituti bitiruvchi talabasi .

Kirish. Osteoartroz – bo`g`imlarning degenerativ – distrofik kasalligi bo`lib to`g`aylar degeneratsiyasi va destruksiyasi va reaktiv sinovit rivojlanish ehtimoli bilan kechadi .Kasallikning mahalliy rivojlanishiga ta`sir ko`rsatuvchi etiologik omillar orasida ortiqcha tana vazni va semizlik yetakshi o`rinlardan birini egallaydi .

Maqsad: Ortiqcha tana vazni bo`lgan bemorlarda osteoartroz davolanish tezligi va samaradorligini baholash , ularni sog`lom tana vazniga ega bemorlar bilan solishtirish.

Materiallar va usullar: Tadqiqotga Osteoartroz III – IV rentgen bosqichi (Kellgren va Lawrence bo`yicha) tashxisi qo`yilga 60 nafar bemor kiritilgan. Tekshiruv shikoyatlarni to`plash , anamnez va klinik tekshiruvdan boshlandi . Bemorlar orasida ayollar( $n=45$  , 75%) erkaklarga nisbatan ( $n=15$ , 25%)ko`proq .Bemorlar tana massasi indeksiga ko`ra 2 guruhga ajratildi.

- 1- guruh — ortiqcha tana vazniga ega 30 nafar bemorlar ($TMI > 30 \text{ kg/m}^2$)
- 2 - guruh — me`yoridagi tana vazniga ega 30 nafar bemorlar ($TMI > 18.5 - 24.9 \text{ kg/m}^2$).

Barcha bemorlarga standart kompleks davolash (NSYQD , xondroprotektorlar , gialuronidaza ingibitorlari , davolovchi mashqlar) o`tkazildi . Davolanish natijasi VAS (og`riq shkalasi) va WOMAC indeksi bo`yicha 6 haftalik kuzatuvda baholandi .

Natijalar : Me`yoridagi tanavazniga ega bemorlar davolanish samaradorligi ortiqcha tana vazniga ega bemorlar davolanish samaradorligidan ustunlik qildi.Me`yoridagi tana vazniga ega 30 nafar bemordan 25 nafarida (83.3%) bo`g`im tirqishining yaqqol torayishi va tunda avj oluvchi og`riqlar yo`qolgan , 3(10%) nafar bemorda bo`g`im tirqishi yaqqol torayishi o`zgarmagan bo`lsada og`riqlar bartaraf etilgan. 2(6.6%) bemorda davolanish protsessi o`zgarishsiz qoldi .

Yuqori tana vazniga ega bemorlarning 15 (50%) nafarida og`riqlar va bo`g`imlar deformatsiyalanishi to`xtagan bo`lsa , keyingi 15(50%) nafar bemorda davolnish samaradorligi o`zgarishsiz qoldi . Ikki guruh o`rtasidagi farq statistik ahamiyatli deb topildi.

Xulosa: Ortiqcha tana vazni osteoartroz davolanish dinamikasini sekinlashtirishi va rehabilitatsiya samaradorligini kamaytirishi tasdiqlandi. Shuningdek davolash jarayonida tana vaznini nazorat qilish va yetarlicha kamaytirish osteoartroz terapiyasining muhim tarkibiy qismi ekanligi isbotlandi.